

**O'ZBEK TILI MUHANDISLIK TERMINOLOGIYASINING TAHLILI VA
TADQIQIGA OID**

Ibragimova Asila Elboboyevna

Axborot texnologiyalari universiteti

Lingvistika o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Tilshunoslik sohasida atamalar tadqiqi maxsus tayyorgarlik hamda alohida yondashuv talab etadi. Boisi terminlar tadqiqida tadqiqotchidan nafaqat tilshunoslikka oid bilimlar, balki muayyan ilmiy sohaga oid qarashlarning ham mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda maxsus sohalarda qo'llaniluvchi so'z va so'z birikmalari termin sifatida taqin qilinuvchi so'z va so'z birikmalari termin sifatida talqin qilinadi. Aksar tilshunoslar to'liq asos bilan termin, eng avvalo til lug'aviy tizimining teng huquqli a'zosi ekanligini ta'kidlaydilar.⁹ Termin bilan so'z o'rtasida o'tib bo'lmas chegara yo'q, ular "shaklan ham, mazmunan ham ham" jiddiy tafovutga ega emas.¹⁰

Shu o'rinda aytish joizki, dunyo tilshunosligida terminologik tizimlarni o'rganish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Buning sababi shundaki, fan va texnologiyaning tezkor rivojlanishi, axborotlarning doimiy oqimi insoniyatni tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan bugungi davrda, terminologik birliklar faoliyatining kuchayishiga olib kelmoqda. Mazkur jarayonlar sohalararo muloqotga bo'lgan ehtiyojni orttirib, odamlar o'rtasidagi bilim almashish jarayonini yanada soddalashtiradi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da, termin haqida shunday ta'rif berilgan: "Termin - (lotincha terminus - chek - chegara). Fan, texnika, kasb - hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi"¹¹.

Har bir til terminologiyasi o'z tarkibiga ijtimoiy jamiyatning barcha kasbiy faoliyat sohalariga oid maxsus leksikani jamlaydi. Bu holat o'zbek tili terminologiyasida ham to'liq kuzatiladi. Terminologiyaning shakllanishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Bunda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holati, taraqqiyoti muhim sanaladi. Chunki har bir millatning turmush tarzi, o'tganidan,

⁹ Виноградов В. В Вступительное слово на Всесоюзном терминологическом совещании // Вопросы терминологии. – Москва, 1961. -С. 3-10;

¹⁰ Винокур Г. О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. // Труды МИФЛИЮТ.5. Сборник статей по языковедению-Москва, 1939.-С.3-54;

¹¹ Хojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati

xususan, fani, madaniyati, ta'limi bir xil bo'lmaganidek, unga uyg'un tarzda, til taraqqiyoti ham farq qiladi. Bir so'z bilan aytganda, terminologiya bu millatning o'tmishini va bugunini ko'rsatuvchi ko'zgularidan biridir.¹²

O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (VII–X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI–XIX) terminologiyasi, eski o'zbek adabiy tili (XIX–XX asr boshida) terminologiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish sal kam o'n to'rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab etish imkonini beradi.¹³

Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti muhandislik sohasining rolini mislsiz darajada oshirmoqda. Muhandislik insoniyat hayoti va atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va innovatsion mahsulotlar yaratishda asosiy o'rin tutadi. Shu boisdan ham muhandislik sohasining turli yo'nalishlari va ular orasidagi funksional farqlarning mavjudligini innobatga olib, mazkur soahaga oid terminlarni tadqiq etish bugun g'oyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan holda o'rganilishi dolzarb masala hisoblanadi.

Aytish joizki, jamiyat hayotida muhandislik sohasining o'rni beqiyos. Sababi texnologik rivojlanish va sanoatning yuksalishi aynan ushbu soha bilan chambarchas bog'liq va to'g'ri qo'llash ehtiyoji ortib bormoqda. Bu esa nafaqat texnologik taraqqiyot, balki muhandislik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning sifatli o'sishini ta'minlash uchun muhim omil bo'ladi.

Dunyo tilshunosligida termin lingvistik jihatdan T.V. Shetle, B.N. Rakhimberdiyev, A.T. Khudoiberganova, O.V. Dovbish, O.V. Baran, N.V. Gavrilova, O.A. Pokrovska, M.K. Yumatova, N.V. Moryakhina, I.V. Skvortsova, E.N. Lotka singari tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan.¹⁴

¹² Xudoyberdiyeva Sevara Hamzayevaning "O'zbek marketing terminologiyasi" Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasidan Toshkent, 2022

¹³ Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, Nodirabegim. 2020, – B. 13.

¹⁴ Qarang: Шетле Т.В. Англоязычная терминология банковского дела в языковой системе и речевой практике: дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2010; Рахимбердиев Б.Н. Эволюция семантики экономической терминологии русского языка в XX веке: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2004; Худойберганова А.Т. Принципы построения переводного идеографического словаря банковской терминологии (на материале русского, английского и казахского языков: автореферат дисс...канд.филол.наук. – Алматы, 2003; Довбыш О.В. Английская финансовая терминология и проблемы её перевода на русский язык: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2003; Баран О.В. Сопоставление экономических терминосистем во французском и русском языках в аспекте современной неологии: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2005; Гаврилова Н.В. Деловая терминология международной экономики во французском, английском и русском языках в тезаурусном аспекте: дисс...канд.филол.наук. – Екатеринбург, 2009; Покровская О.А. Украинская терминология рыночных

Bundan tashqari o'zbek va rus tili leksikasining terminologik muammolari bo'yicha mahalliy va xorijlik terminshunos olimlar: R. Doniyorov, X. Dadaboyev, I.J. Yuldashev, O.S. Ahmedov, Sh.G. Jabbarova, V.Q. To'ychiyev, H.E. Yodgorov, G.Yo. G'ulomova, R.H. Shirinova, O.M. Po'latova, I.X. Pardaeva, M.S. Akhatova, R.S. Nuritdinova, Z. Mirakhmedova, Sh.I. Isakova, Ch.S. Abdullahova, D.F. Nurmuhamedova, S.X. Nurmatova, I.X. Sodikova, A. Kasimova, Z.V. Solovyeva, G.A. Sergeeva, L.V. Klimenko va boshqalar tomonidan nomzodlik va doktorlik ishlar amalga oshirilgan.¹⁵

Mazkur ishlarda huquqshunoslik, zargarlik, yog'ochsozlik, musiqashunoslik, kitobchilik, anatomiya, onomastika, iqtisodiyot, soliq va bojxona, yo'lsozlik, ekologiya singari qator sohalarining terminologik tizimlari lingvistik nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Ularning aksariyatida, asosan, turkiy tillararo munosabat, o'zlashgan qatlam tabiati, shuningdek, o'zbek va rus tili leksikasiga xos bo'lgan terminlar tahlilga tortilgan.¹⁶

Bunday holatda, bizning ishimiz mavjud tadqiqotlardan muhandislik terminologiyasining ilk bor alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishi bilan ajralib turadi. An'anaviy ravishda, sohalar bo'yicha terminologiya o'rganilganda, muhandislik fanlari kengaygan va rivojlangan sohalaridan biri sifatida alohida e'tiborga olinadi.

Ma'lumki, har bir milliy tilda o'ziga xos terminologik tizimlar mavjud. Terminshunoslikni o'zbek tilshunosligida jadallik bilan rivojlanayotgan soha sifatida e'tirof etish mumkin. XX asrning 60-yillaridan keyin o'zbek tilining turli terminologik tizimlarini tadqiq qilish ommalashdi.¹⁷

отношений: дисс...канд.филол.наук. – Харьков, 1996; Юматова М.К. Экономическая терминология в татарском литературном языке: дисс...канд.филол.наук. – Казань, 2007; Моряхина Н.В. Формирование и функционирование терминологии менеджмента в русском языке: дисс...канд.филол.наук. – Казань, 2008; Сковрцова И.В. Особенности экономической терминологии современного арабского языка: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2008; Лотка Е.Н. Англоязычная терминология финансово-экономических взаимоотношений: дисс...канд.филол.наук. – Киев, 2010.

¹⁵ Doniyorov R., Ramazonova L. Ijtimoiy-siyosiy atamalarning Ruscha-o'zbekcha qisqacha lug'ati. O'zRFA Tilshunoslik instituti. – Toshkent: Fan, – 1994. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв. –Toshkent: Yozuvchi. 1991. Yo'ldashev I.J. O'zbek kitobchilik teminologiyasi; shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish.

¹⁶ Xudoyberdiyeva Sevara Hamzayevaning "O'zbek marketing terminologiyasi" Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasidan Toshkent, 2022

¹⁷ Qarang: Джамалханов Х. Из истории формирования и развития узбекской ботанической терминологии: автореф. дисс... канд.филол.наук. – Ташкент, 1966; Дониёров Р. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent, 1977; Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент, 1978; Касымов А.И. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке: автореф. дисс... канд.филол.наук. –Ташкент, 1982; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: автореф. дисс... канд.филол.наук. – Ташкент, 1986; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных писменных памятниках XI–XIV вв. – Ташкент, 1991; Мирахмедова З. Hozirgi o'zbek tilining anatomic terminologiyasi: filol.fan.nomz...diss. – Toshkent, 1994.

Muhandislik sohasidagi terminlarning kelib chiqishi va ularning rivojlanib borishi, shu sohaga xos terminologik qatlamlarning shakllanishi, o'z navbatida, fan va texnologiyalar taraqqiyoti, amaliyotda yuzaga kelgan yangi ehtiyojlar va ilmiy yondoshuvlarning ta'siriga bog'liqdir. Har bir yangi innovatsiya va texnikaviy yutuq o'ziga xos terminlar, atamalar va tushunchalar tizimini shakllantirib, sohaning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu ma'noda "Terminologik tizimning o'ziga xos jihatlari, uning tarkibiy bog'liqligi lingvistik omillar asosida so'z va so'z birikmalarining yasalishidagi modellarda aniq va ravshan aks etadi."¹⁸

O'zbek tilida muhandislik terminologiyasi taraqqiyoti uzoq tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, uning shakllanishi tilning tabiiy evolyutsiyasi, tashqi tillar bilan aloqadorlik darajasi, ilm-fan va texnika taraqqiyoti bilan bevosita uzviy bog'liq. Terminologik tizim, xususan, arab, fors, rus, ingliz va boshqa yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlar hisobiga boyib borgan. Har bir davr o'zining ijtimoiy-siyosiy va madaniy xususiyatlariga ko'ra, muayyan o'zlashuv manbalarini yuzaga chiqargan¹⁹.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muhandislik terminologik tizimi boshqa sohalar bilan solishtirganda, o'zining barqarorligi va izchil rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ushbu tizim, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalardagi yangiliklar, innovatsiyalar va amaliy ehtiyojlarga mos ravishda o'zgarmas va mustahkam asosga ega bo'lib, muhandislik amaliyotida aniq, to'liq va samarali tushunchalarni yaratishda davom etmoqda.

Bu tabiiy jarayon bo'lib, L.S. Badhudarov ta'kidlaganidek, - ilm-fan hamda texnikada bilimimiz rivojlanib borgan sari, yangi terminlarga bo'lgan ehtiyojimiz ham muntazam oshib boradi.²⁰

Yaqin o'n yillikda muhandislik sohalarida texnologik taraqqiyot va innovatsion faoliyat kuchaygani sari ilmiy-texnik terminlarning milliy tilga sifatli moslashtirilishi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, o'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanib borishi, ilmiy-tadqiqotlar va oliy ta'lim tizimida texnik sohalarga oid bilimlarni ifodalashda to'liq imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, muhandislik terminologiyasining mukammal tizimini yaratishni, mavjud terminlarni tahlil qilish va yangilarini shakllantirishni taqozo etadi.

¹⁸ Реформатский А.А. Введение в языкознание. – Москва, 1967. – С 322.

¹⁹ Rahmonov, S. 2005. O'zbek terminologiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

²⁰ Бадхударов Л.С. О значении и задачах научных исследований в области терминологии. – Москва, 1970. – С 142

Muhandislik terminologiyasi har xil texnik va ilmiy sohalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, buning natijasida ilmiy-texnikaviy jarayonlarning murakkabligini aks ettiruvchi maxsus atamalar va tushunchalar to'plami hosil bo'ladi. Bu sohaning o'ziga xosligi shundaki, muhandislik terminologiyasi doimiy ravishda rivojlanib, yangi texnologiyalar, qurilish materiallari, ishlab chiqarish usullari va boshqalar bilan boyib boradi. Shuning uchun, muhandislikda terminologik tizimni shakllantirish va tizimni yanada to'g'ri, aniq va ravon kiritish juda muhim hisoblanadi. Bunda turli tillar o'rtasidagi izchillik, o'zlashtirish jarayoni va atamalarni samarali ravishda tarjima qilishning zarurati katta ahamiyatga ega.

Bizningcha, muhandislik terminologiyasi o'zining murakkablik darajasi, qat'iy kontekstual bog'liqligi va tizimli xarakteri bilan umumiy leksikadan sezilarli darajada farqlanadi. Jumladan, texnik tushunchalarni ifodalovchi terminlar ko'p hollarda murakkab birliklar, qisqartmalar, formulalar yoki hisoblangan belgilar asosida shakllanadi. Masalan, S.I. Ozhegovning fikricha, termin bu – “ilm-fan, texnika, san'at va ishlab chiqarishga oid maxsus tushunchalarni ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi” (Ozhegov, 1981, s. 604)².

O.Axmanovanning ta'kidlashicha, esa terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi.

“Muhandislik” atamasi insoniyat tafakkurining chuqur qatlamlaridan o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, u nafaqat texnik faoliyat, balki madaniy, ilmiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida shakllangan. Muhandis- (injener, texnik; handasa(geometriya)ni yaxshi biluvchi, quruvchi usta) texnikaning biror sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis. (Islomxo'ja:)Jadid maktablarni ko'rib, ochib, dunyoviy fanlarni o'qitib.. muhandis,ziroatchi, doctor, texnik tayyorlab chiqarish lozim.J.Sharipov, Xorazm ustalarini ham, yangi bino loyihasi ustida bosh qotirayotgan muhandislarni uchratasiz. O.Hakimov suv keltirgan aziz.²¹

Manbalarning guvohlik berishicha, bu so'zning ildizlari arab tilidagi “handasa” (هندسة) so'ziga borib taqaladi. “Handasa” dastlab “hisob-kitob qilish”, “geometrik shakllar bilan ishlash”, “o'lchash” kabi ma'nolarni anglatar edi. Shu so'zdan hosil bo'lgan "muhandis" atamasi esa "aniq hisob-kitob asosida ish yurituvchi shaxs", ya'ni hisob-kitob, rejalashtirish va amaliyot bilan shug'ullanuvchi mutaxassis degan ma'noni bildirgan.

²¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. - Toshkent - 2020.-663-bet.

Ingliz tilidagi **“engineer”** soʻzi ilk bor 1325-yillarda hujjatlarda uchraydi va u oʻsha davrda **qamal mashinalari**, koʻpriklar, toʻsiqlar va qalʼa qurilishida ishlatilgan texnik vositalar va ularni yasaydigan **“engineer”** (muhandis)larga nisbatan qoʻllanilgan. Ushbu atama lotin tilidagi **“ingenium”** (“aql”, “iqtidor”, “yangi narsa ixtiro qilish qobiliyati”) soʻzidan olingan boʻlib, fransuz tilidagi **“engineur”** orqali ingliz tiliga oʻtgan.

Muhandis yoki **injener**, ilgari Sharqda binokor, yer oʻlchovchi, bino va inshootlarni loyihalovchi, geometriya bilan shugʻullanuvchi kishilar „muhandis“deb atalgan. Muhandis texnikaning biror sohasi boʻyicha oliy maʼlumotga ega boʻlgan mutaxassis.²² Bagʻdod, Damashq, Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Qoʻqon va boshqa shaharlarda hozirgacha saqlanib qolgan qadimiy bino va inshootlar qurilishida foydalanilgan murakkab geometrik shakllar, arklar, gumbazlar, qubbalar, jumladan sugʻorish va suv chiqarish inshootlari (koriz, sardoba), charxpalak (chigʻir) muhandislik qadimdan taraqqiy etganligini bildiradi. Xususan, Ashad al-Fargʻoniyning Nil daryosiga qurilgan suv miqdorini oʻlchash inshooti ham muhandislik namunasi hisoblanadi. Yevropada, dastlab, harbiy mashinalarni boshqargan kishilar injener (Lotinchada: ingenium — qobiliyat) deb nomlangan. Bu tushuncha 16-asrda Gollandiyada koʻprik va yoʻl quruvchilarga nisbatan ishlatilgan, soʻngra Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlariga tarqalgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, oʻrta asrlarda musulmon olamida ilm-fan va texnologiyalarning rivojiga katta eʼtibor berilgan davrlarda bu atama keng tarqalgan. Ayniqsa, arxitektura, mexanika, astronomiya, irrigatsiya tizimlari, qalʼa va koʻprik qurilishi singari sohalarda faoliyat yurituvchi olimlar muhandis deb atalgan. Masalan, mashhur alloma Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom va boshqa mutafakkirlarning faoliyatida “muhandislik tafakkuri” yaqqol koʻzga tashlanadi. Yevropa tillarida ushbu soha “engineering” atamasi bilan ifodalanadi. Ingliz tilidagi “engineering” soʻzi lotin tilidan kelib chiqqan boʻlib, “ingenium” – “aql-zakovat”, “ixtirochilik qobiliyati” va “ingeniare” – “rejalashtirmoq”, “ixtiro qilmoq” soʻzlariga borib taqaladi.

Dastlab bu soʻz harbiy texnika bilan bogʻliq ishlarda, masalan, qalʼalar, koʻpriklar qurishda qoʻllanilgan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan bu tushuncha barcha texnik va texnologik faoliyatlarni qamrab olgan keng qamrovli ilmiy sohaga aylandi. Har bir yoʻnalish zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqishda muhim oʻrin egallaydi. Muhandislar jamiyat infratuzilmasi, energetika, tibbiyot, qishloq xoʻjaligi,

²² Oʻzbek tilining izohli lugʻati. - Toshkent - 2022.-251-bet.

transport kabi sohalarning barqaror ishlashi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Muhandislik fanlari zamonaviy jamiyatning har bir sohasida muhim ahamiyat kasb etib, turli soha va sanoat tarmoqlarining ilmiy-texnik asosi hisoblanadi. Ular nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, balki ekologik, energetik va axborot xavfsizligi kabi dolzarb muammolarni hal etishda ham muhim o'rin egallaydi. Muhandislik fani ko'plab tarmoqlarga ega bo'lib, har bir yo'nalish muayyan texnologik, ilmiy yoki ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllanadi.

Til taraqqiyotida o'zlashma so'zlar muhim omillardan biri bo'lib, ular ko'p hollarda jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Muhandislik terminologiyasining shakllanishi ham bundan mustasno emas. O'zbek tilida bu jarayon ko'p bosqichli va murakkab kechgan bo'lib, har bir davr o'ziga xos o'zlashuv manbalari va leksik mexanizmlar bilan ajralib turadi.

Turkiy ildizli so'zlar dastlab xalq amaliyoti doirasidagi qurilish, hunarmandchilik va suv xo'jaligiga oid tushunchalarni ifodalagan. Bu atamalar ko'pincha bevosita hayot tajribasi asosida shakllangan bo'lib, "quduq", "to'sin", "ko'prik" kabi so'zlar tarixiy jihatdan xalq ehtiyojlaridan kelib chiqqanligini ko'rsatadi. Bu jihat muhandislik faoliyatining milliy ildizlarga ega ekanini isbotlaydi.

Islom madaniyatining kirib kelishi bilan birga ilm-fan doirasidagi ko'plab tushunchalar arab va fors tillaridan kirib keldi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu atamalar bevosita diniy yoki nazariy bilimlar bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, "muhandis" so'zining asl ildizi arab tilidagi "handasa" – geometriya atamasidan kelib chiqib, keyinchalik texnik mutaxassisni anglatadigan ma'noga ega bo'lgan. Bu esa terminlarning semantik kengayishi jarayoniga misol bo'la oladi. Fors tilidan kirgan "me'mor", "bandi", "ustun" kabi so'zlar esa amaliy sohalarga yaqin bo'lib, ular orqali qadimiy qurilish an'analarining tilga qanday singganini ko'rish mumkin.

Rus tilidan kirgan atamalar esa XX asr sanoatlashuvi davrida texnik taraqqiyot bilan bog'liq ehtiyojlardan kelib chiqdi. "Generator", "mexanizm", "dvigatel", "truboprovod" kabi atamalarni o'zlashtirishda ularning fonetik moslashuvi muhim rol o'ynagan. Bunday terminlar tez-tez o'zbekcha affikslar bilan boyitilib, ko'plik (generatorlar), egalik (mexanizmingiz), fe'l shakli (kompressorlash) hosil qilingan. Bu esa tilning morfologik moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlar esa zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq: "software", "algorithm", "robotics", "engineering system" va boshqalar. Bu atamalar ko'pincha tarjima qilinmasdan, asl ko'rinishida ishlatilmoqda. Bu holat, bir tomondan, tilning xalqaro texnologik muhitga moslashishini ta'minlasa, boshqa tomondan, milliy konseptual qarashlarga zarar

yetkazishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy atamalarni milliy ruhda izohlash, iloji boricha ekvivalentlar yaratish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, muhandislik terminologiyasining shakllanishi tilda faqat tilshunoslik emas, balki tarix, sivilizatsiya, iqtisod va madaniyat bilan bog'liq ko'p qirrali jarayon ekanligini ko'rsatadi. Til – bu oddiy vosita emas, balki bilimlar, qadriyatlar va tafakkur shakllarining ko'zgusidir. Shuning uchun terminologik o'zlashuvlar jarayonini tahlil qilishda, ularning faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy va madaniy ildizlarini ham chuqur o'rganish lozim.

Demak, muhandislik sohasiga oid atamalar fan sohasining turli bo'g'inlarida turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi bilan birga, tilga yangi mazmun va mohiyat kasb etuvchi so'zlarning kirib kelishi bilan ham xarakterlidir. Muhandislik sohasining terminologiyasi yurtimizda garchand qadimiy ildizlarga ega bo'lsada, hali hamon yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu nuqtai nazardan soha atamalarini kompleks ravishda tadqiq va tahlil etish bugungi tilshunoslik oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Ne'matov, I. Ermatov Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: Fan, 2013. 3-bet;
2. Виноградов В. В Вступительное слово на Всесоюзном терминологическом совещании // Вопросы терминологии. – Москва, 1961. - С. 3-10;
3. Винокур Г. О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. // Труды МИФЛИЮТ.5. Сборник статей по языковедению-Москва, 1939.-С.3-54;
4. Doniyorov R., Ramazonova L. Ijtimoiy-siyosiy atamalarning Ruscha-o'zbekcha qisqacha lug'ati. O'zRFA Tilshunoslik instituti. – Toshkent: Fan, – 1994.
5. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв. –Toshkent: Yozuvchi. 1991. Yo'ldashev I.J. O'zbek kitobchilik teminologiyasi; shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish.
6. Xudoyberdiyeva Sevara Hamzayevaning "O'zbek marketing terminologiyasi" Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasidan Toshkent, 2022
7. Rahmonov, S. 2005.O'zbek terminologiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.